

Ishonch telefonlariga 108 ta fuqaro murojaat qildi

O'tgan hafta davomida Murojaatlar bo'limi xodimlari imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **252 nafar** bemor bilan tibbiy yordamni baholash, tibbiy yordam sifati va hajmi yuzasidan telemuloqot o'tkazdi.

Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya, xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida, Bolalar milliy tibbiyot markazida, Respublika teri-tanosil kasalliklar klinik shifoxonasida, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining ko'p tarmoqli klinikasi va bir qator xususiy tibbiyot tashkilotlari shular sirasidan.

Bo'lim xodimlari o'tkazgan telemuloqotlar natijasida imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **9(3,6%) nafar oziq-ovqat sifatidan, shifokor va hamshiralar qarovidan, o'z hisobidan dori vositalari hamda tibbiy jihoz sotib olganligi** yuzasidan e'tirozlarini bildirgan.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefon(**99 353 93 54, 94 353 93 54**)lariga **108 ta** fuqarodan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan **"sms" xabarnoma, jamg'arma faoliyati hamda fuqarolarning shifoxonalar yuzasidan og'zaki e'tirozli murojaatlari** bo'ldi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi **ishonch telefonlariga, tashkilot manziliga kelib hamda ishonch telefoni telegrammiga** hafta davomida imtiyozga ega fuqarolardan **8(7,4%)ta og'zaki va elektron yozma e'tirozli murojaatlar** bo'ldi.

Shulardan:

Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanida yashovchi imtiyozga ega fuqaro imtiyozli yo'llanma bilan **Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi** qabul qilmayotganligini bildirib tashkilot manziliga murojaat qilgan bo'lsa, Qarshi tumanida yashovchi fuqaro imtiyozli yo'llanma bilan **Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi**, Pastdarg'om tumanida yashovchi fuqaro imtiyozli yo'llanma bilan **Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi**, Xovos tumanida yashovchi imtiyozga ega fuqaro imtiyozli yo'llanma bilan **Sirdaryo viloyati Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi filiyali qabul qilmayotganligi yuzasidan norozi bo'lib**, ishonch telefonlariga **murojaat qildi.**

Yuqoridagi holatlar bo'yicha fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligiga murojaat qilish kerakligi yuzasidan tushuntirish berilib, **e'tirozli murojaatlar o'z vaqtida bartaraf qilindi.**

Toshkent viloyati Zangiota tumanida yashovchi fuqaro imtiyozli yo'llanma bilan **Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasida**, Andijon viloyati

Andijon shahrida yashovchi fuqaro Andijon viloyati viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi imtiyozli yo'llanma bilan davolanish davrida ***o'z hisobidan dori vositalari sotib olganligi hamda shifokorlar muomilasidan noroziligi bo'yicha o'zlarini og'zaki murojaatlarini bildirgan bo'lsada yozma murojaat qilmasligini bildirdi.***

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanida yashovchi 2-guruh nogironi o'z hududiga poliklinika shifokorlari kasalligi bo'yicha bepul beriladigan dorilarni o'z vaqtida bermayotganligi bildirib Jamg'armaning ishonch telefoni telegramm kanaliga yozma shaklda murojaat qildi. Fuqaro murojaati ijobiy hal qilindi.

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidan Yangiyer tez tibbiy yordamda shifokor bo'lib ishlayotgan fuqaro ***oylik ish haqi miqdoridan kam to'lanayotganligi yuzasidan Jamg'armaga murojaat qildi.*** Ushbu murojaatni Sirdaryo viloyati hududiy bo'linma ma'sullari ***ijobiy hal qildi.***

Surxondaryo, Qashqadaryo, Andijon va Sirdaryo viloyatlarida yashovchi imtiyozga ega fuqarolardan Jamg'arma ishonch telefoniga kelib tushgan og'zaki murojaatlar xududiy bosh mutaxassislariga ma'lumotlari berildi, og'zaki murojaat qilgan fuqarolarga tegishlilik yuzasidan qaerga murojaat qilish kerakligi hududiy bosh mutaxassislar tomonidan tushuntirildi.

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi xodimlari hafta davomida umumiy ***360 nafar*** fuqarolar bilan telemuloqatlar o'tkazdilar.

**Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi
Matbuot xizmti.**